“Kelajak so‘z ustasi” ko‘rik-tanlovi hamda uning doirasida “Ochiq mikrofon” ijodiy kechasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom mahalla-tuman-hudud-respublika miqyosida askiya, qiziqchilik va stendap san’ati yo‘nalishidagi iste’dodli yoshlarni kashf qilish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan **“Kelajak so‘z ustasi” ko‘rik-tanlovini hamda uning doirasida “Ochiq mikrofon” ijodiy kechasini** (keyingi o‘rinlarda — Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov 15 yoshga to‘lgan 35 yoshdan oshmagan iqtidorli yoshlar, jumladan, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yigit-qizlar, mahallalardagi yoshlar orasidan askiya, qiziqchilik va stendap yo‘nalishlariga qiziquvchi iste’dodlarni izlab topish va ularni o‘zlari qiziqqan askiya, qiziqchilik va stendap yo‘nalishlaridagi ijodkorligini rag‘batlantirish, ijodiy faolligini oshirish, qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili o‘tkaziladi.

3. Tanlovni tashkil etish bo‘yicha mas’ul “Askiya, qiziqchilik va stendap” ijodiy birlashmasi (keyingi o‘rinlarda — Tashkilotchi) hisoblanadi.

4. Tanlovni umumiy muvofiqlashtirish, tashkiliy ishlarni amalga oshirish va uni yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va hududiy madaniyat boshqarmalari mas’ullari hamda taniqli so‘z ustalaridan iborat tarkibda (kamida yetti nafar) **Tashkiliy qo‘mita** tuziladi.

5. Tanlovni tashkillashtirish, uning uzluksiz va tizimli o‘tkazilishini ta’minlash, hujjatlar almashinuvini muvofiqlashtirish hamda texnik-ijroiy masalalarni hal etish maqsadida Tashkilotchi va mas’ul tashkilotlar vakillaridan iborat Tarkibda (kamida o‘n besh nafar) **Ishchi guruh** tuziladi.

2-bob. Tanlovni o‘tkazish shartlari, muddatlari, tartibi va baholash mezonlari

6. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlaridan 15 yoshga to‘lgan va 35 yoshdan oshmagan barcha yoshlar qatnashish huquqiga ega.

7. Tashkilotchi tanlov boshlanishidan bir oy oldin o‘z rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda veb-saytiga arizalarni shakllantirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko‘rsatilgan e’lonni joylashtiradi.

8. Tashkilotchi Tanlov ishtirokchilarini tanlovning talab va shartlari to‘g‘risida xabardor qiladi, tanlov yakunlari bo‘yicha g‘oliblarga xabar beradi va ularni taqdirlashni tashkil etadi.

9. Ishchi guruhning asosiy vazifa va vakolatlari quyidagilardan iborat:

tanlovda ishtirok etish uchun Telegram-bot yoki rasmiy platforma orqali kelib tushgan arizalarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va ma’lumotlarni umumlashtirish;

mahalla, tuman (shahar) va hududiy bosqichlardan taqdim etilgan hakamlarning individual baholash varaqasi hamda bayonnomalarni *(Nizomning 1-ilovasiga muvofiq)* qabul qilib olish va ularning ushbu Nizom talablariga mosligini tekshirish;

tanlovning barcha bosqichlarini belgilangan muddatlar va jadvalga muvofiq o‘tkazilishini muvofiqlashtirish;

ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan apellyatsiya murojaatlarini dastlabki tarzda qabul qilib, ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish uchun apellyatsiya komissiyasiga kiritish;

tanlov bosqichlari natijalari va g‘oliblar haqidagi ma’lumotlarni Tashkiliy qo‘mitaga ko‘rib chiqish uchun taqdim etish;

tanlovning tashkiliy, axborot va texnik ta’minoti bo‘yicha joriy masalalarni hal etish.

10. Apellyatsiya murojaatini ko‘rib chiqish uchun Tashkilotchining buyrug‘i bilan besh nafar a’zodan kam bo‘lmagan toq sonli tarkibda Apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasining asosiy vazifa va vakolatlari quyidagilardan iborat:

Apellyatsiya komissiyasi shikoyat kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni ichida shikoyatni ko‘rib chiqadi.

Apellyatsiya komissiyasi yig‘ilishida komissiya a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etsa, mezon qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

Apellyatsiya komissiyasi nomzodning apellyatsiyasini ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

apellyatsiya muallifining shikoyatlarida ko‘rsatilgan vajlar aniqlanmagan taqdirda, Hakamlar hay’atining qarorlarini o‘zgarishsiz qoldirish;

apellyatsiya muallifining shikoyatlarida ko‘rsatilgan vajlar mavjudligi aniqlangan taqdirda, Hakamlar hay’atining qarorlarini o‘zgartirish. Bunda Hakamlar hay’atining qarori qayta tasdiqlanadi;

apellyatsiya komissiyasining qarori yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi.

Bayonnoma apellyatsiya komissiyasining raisi va a’zolari tomonidan imzolanadi.

apellyatsiya komissiyasining qarori qaror qabul qilingan kunning o‘zida apellyatsiya muallifiga yuboriladi.

11. Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan yoshlar maxsus @xandatanlovlarbot Telegram boti yoki xanda.uz platformasi orqali belgilangan tanlov toifasidan birini tanlagan holda (ikkitagacha tanlov toifasida ishtirok etishga ruxsat beriladi) ro‘yxatdan o‘tadi.

Tanlov toifasi	**Tanlov bosqichlari**
Askiya *(jamoaviy)*	*1-2-3-4-bosqich*
Qiziqchilik *(yakkaxon)*	*1-2-3-4-bosqich*
Qiziqchilik *(jamoaviy)*	*1-2-3-4-bosqich*
Stendap *(yakkaxon)*	*1-2-3-4-bosqich*
Xalqaro yo‘nalish	*3-4-bosqich*

12. Xalqaro yo‘nalishda ishtirok etish tartibi:

Tanlovning **“Xalqaro yo‘nalish”** toifasi bo‘yicha bellashuvlar bevosita **3-bosqichdan (hududiy bosqichdan)** boshlanadi.

Tanlovning milliy toifalaridan *(Askiya, Qiziqchilik, Stendap)* ro‘yxatdan o‘tgan hamda xorijiy tillarda ham ijodiy chiqish qila oladigan ishtirokchilar o‘z xohishiga ko‘ra (ixtiyoriy ravishda) qo‘shimcha ravishda **“Xalqaro yo‘nalish”** toifasida ham ishtirok etishlari mumkin.

Shuningdek, ishtirokchilar milliy yo‘nalishlarning hech birida qatnashmasdan, bevosita faqat **“Xalqaro yo‘nalish”** toifasining o‘zida alohida ishtirok etish huquqiga ega.

13. Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan ishtirokchilar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi;

askiya, qiziqchilik, stendap hamda xorijiy tildagi stendap yoki yumoristik chiqishlar (xorijiy yo‘nalish) bo‘yicha o‘zining mualliflik chiqishi, sahna ko‘rinishi yoki payrov ssenariysiga ega bo‘lishi;

ijodiy chiqishlari milliylik, odob-axloq va Tanlov mezonlariga to‘liq mos kelishi;

14. Tanlov bir yilda bir marta respublika hududlari bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘tkaziladi:

1-bosqich — “Ochiq mikrofon” kechasi mahalla miqyosida;

2-bosqich — tuman (shahar) miqyosida;

3-bosqich — viloyat bo‘yicha, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Toshkent shahri miqyosida;

4-bosqich — respublika miqyosida.

15. **Tanlovni o‘tkazish muddatlari:**

1-bosqich — sentyabr;

2-bosqich — oktyabr;

3-bosqich — oktyabr-noyabr;

4-bosqich — noyabr.

16. **Tanlovni o‘tkazish tartibi:**

Ishtirokchilarning chiqishlari Nizomning 1-ilovasida belgilangan 100 ballik tizim, reglament va individual baholash varaqasiga muvofiq Hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

1-bosqichda (Ishtirokchilar soni yoki tashkiliy imkoniyatlardan kelib chiqib, bir nechta qo‘shni mahalla uchun yagona “Ochiq mikrofon” ijodiy kechasini tashkil etishga ruxsat etiladi) har bir tanlov toifasi bo‘yicha eng yuqori natija ko‘rsatgan 1 nafardan (jamoadan) ishtirokchi (jamoa) 2-bosqichga yo‘llanma oladi;

2-bosqichda (tuman yoki shahar bosqichi) har bir tanlov toifasi bo‘yicha eng yuqori natija ko‘rsatgan 1 nafardan (jamoadan) ishtirokchi (jamoa) 2-bosqichga yo‘llanma oladi;

3-bosqichda (hududiy bosqich) har bir tanlov toifasi (Xalqaro yo‘nalish) bo‘yicha eng yuqori natija ko‘rsatgan 1 nafardan (jamoadan) ishtirokchi (jamoa) respublika bosqichiga yo‘llanma oladi;

17. Tanlov bosqichlarni o‘tkazish va Hakamlar hay’atini shakllantirish tartibi:

Tuman (shahar) madaniyat bo‘limlari hududda joylashgan markaziy madaniyat markazlarida askiya, qiziqchilik va stendap yo‘nalishiga yaqin mutaxassislarning (yoki madaniyat markazlarining xodimlarining) 3 nafardan iborat Hakamlar hay’ati a’zolarini holda tasdiqlagan holda tanlovning birinchi **mahalla (“Ochiq mikrofon” kechasi) bosqichi** va ikkinchi **tuman (shahar) bosqichlarini** o‘tkazadi. Tuman (shahar) madaniyat bo‘limi mazkur tanlov bosqichlari yakunlangan kundan kechikmasdan hakamlarning individual baholash varaqalari ilova qilingan bayonnomani *(Nizomning 1-ilovasiga muvofiq)* tasdiqlab, belgilangan tartibda Ishchi guruhga taqdim etadi.

Hududiy madaniyat boshqarmalari Tanlovning uchinchi **hududiy bosqichini** hududda joylashgan yirik tomosha zali mavjud bo‘lgan markaziy madaniyat markazi yoki teatr binosida o‘tkazishda amaliy ko‘maklashadi hamda askiya, qiziqchilik va stendap yo‘nalishiga yaqin mutaxassislarning (yoki madaniyat markazlarining xodimlarining) 5 nafardan iborat Hakamlar hay’ati a’zolarini tasdiqlaydi. Tanlovning hududiy bosqichi yakunlangach, hakamlarning individual baholash varaqalari ilova qilingan bayonnomani *(Nizomning 1-ilovasiga muvofiq*) tasdiqlangan holda Ishchi guruhga taqdim etiladi.

Tashkilotchi Tanlovning Respublika bosqichini tashkil etadi va o‘tkazadi. Respublika bosqichini baholab boruvchi Hakamlar hay’ati kamida 7 nafardan iborat tarkibda Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi.

18. Ishtirokchilarning to‘plagan ballari teng kelib qolgan taqdirda, Hakamlar hay’ati xulosasiga ko‘ra, o‘z chiqishlarida milliy qadriyat va an’analarimizga mos ravishda chiqish qilgan ishtirokchiga ustunlik beriladi va Hakamlar hay’atining o‘zaro yakdil kelishuvi bilan 1 ta ishtirokchi g‘olib deb e’lon qilinadi.

19. Tanlovning har bir bosqichi bo‘yicha g‘oliblar bir hafta muddat ichida Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari hamda veb-saytida e’lon qilinadi.

20. Natijalar e’lon qilingan vaqtdan e’tiboran 1 ish kuni ichida ishtirokchilar texnik va hisob-kitob xatoliklari bo‘yicha Ishchi guruhga apellyatsiya murojaatini (platforma yoki telegram botdagi shaxsiy kabinet orqali) mazkur nizomning 3-ilovasiga asosan yuborishi mumkin. Apellyatsiya murojaatlari Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 3 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

3-bob. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va moliyalashtirish

21. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va moliyalashtirish Tashkilotchi tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini belgilangan pul mukofotlari bilan taqdirlash natijalar e’lon qilingandan so‘ng 30 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

22. Tanlovning 1,2,3-bosqichlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Hududiy madaniyat boshqarmalari ko‘magida amalga oshiriladi.

23. Tanlovning 1-bosqichi (“Ochiq mikrofon” kechasi) g‘olibi tegishli diplom bilan hamda 1-bosqich ishtirokchilari tanlovdagi ishtiroki uchun minnatdorlik ramzi sifatida elektron diplom bilan taqdirlanadi;

Tanlovning 2-bosqichi (tuman yoki shahar) g‘olibi tegishli diplom bilan hamda 2-bosqich ishtirokchilari tanlovdagi ishtiroki uchun minnatdorlik ramzi sifatida elektron diplom bilan taqdirlanadi;

Tanlovning 3-bosqichi (hududiy) 1-2-3-o‘rin g‘oliblari qimmatbaho sovg‘alar va tegishli diplomlar bilan hamda 3-bosqich ishtirokchilari tanlovdagi ishtiroki uchun minnatdorlik ramzi sifatida elektron diplom bilan taqdirlanadi;

Tanlovning 4-bosqichi (respublika) 1-2-3-o‘rin g‘oliblari qimmatbaho sovg‘alar va tegishli diplomlar hamda quyidagi tartibda pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar.

Tanlov toifasi	1-o‘rin	2-o‘rin	3-o‘rin

Askiya *(jamoaviy)*	30 mln so‘m	20 mln so‘m	10 mln so‘m
Qiziqchilik *(yakkaxon)*	30 mln so‘m	20 mln so‘m	10 mln so‘m
Qiziqchilik *(jamoaviy)*	30 mln so‘m	20 mln so‘m	10 mln so‘m
Stendap *(yakkaxon)*	30 mln so‘m	20 mln so‘m	10 mln so‘m
Xalqaro yo‘nalish	30 mln so‘m	20 mln so‘m	10 mln so‘m

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Tanlov to‘g‘risidagi ma’lumotlar va uning natijalari Tashkilotchi va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

25. Ishtirokchilar xanda.uz platformasi yoki @xandatanlovlarbot telegram-boti orqali ro‘yxatdan o‘tish jarayonida o‘zlarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilishiga, chiqishlarining foto, audio va videoga olinishiga hamda ushbu materiallardan Tanlovni notijorat targ‘ib qilish maqsadida foydalanilishiga rozilik beradi.

26. Tanlovda yuzaga keladigan har qanday nizoli vaziyatlar **Tashkiliy qo‘mita** tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi va hal etiladi.

“Kelajak so‘z ustasi” ko‘rik-tanlovi hamda uning doirasida “Ochiq mikrofon” ijodiy kechasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomga
1-ILOVA

I. BAHOLASH MEZONLARI

Askiya (jamoaviy)

T/r	Mezon	Mezon mazmuni	Eng yuqori ball
1	Hozirjavoblik va improvizatsiya	Sherikning fikriga tez, mantiqli va kulgili javob qaytarish; jonli badihago‘ylik.	0-20 ballgacha
2	So‘z mahorati va payrov	So‘z o‘yini, qochirim, qofiya, an’anaviy payrovdan o‘rinli foydalanish.	0-20 ballgacha
3	Ijro va jamoaviy uyg‘unlik	Diksiya, ovoz, sahna madaniyati, sheriklar o‘rtasidagi ritm va muvofiqlik.	0-20 ballgacha
4	Mavzu va badiiy yaxlitlik	G‘oyaning aniqligi, dolzarbligi, rivoji va yakunining ta’sirchanligi.	0-20 ballgacha
5	Vaqti reglamenti	Belglangan vaqt reglamentiga amal qilganlik.	0-20 ballgacha
	JAMI		**100 Ball**

Qiziqchilik (yakkaxon va jamoaviy)

T/r	Mezon	Mezon mazmuni	Eng yuqori ball
1	Hajviy mazmun va dramaturgiya	G‘oya, konflikt, kulgili vaziyatlar, kompozitsiya va yakunning ishlanganligi.	0-20 ballgacha
2	Ijro mahorati	Diksiya, ovoz, mimika, plastika, obraz yaratish va sahna madaniyati.	0-20 ballgacha
3	Originalik va mualliflik yondashuvi	Yangilik, o‘ziga xos uslub, plagiatdan xoli material.	0-20 ballgacha
4	Tomoshabin bilan aloqa	Auditoriya e’tiborini ushlab turish, tabiiylik va vaziyatga mos javob.	0-20 ballgacha
5	Vaqti reglamenti	Belglangan vaqt reglamentiga amal qilganlik.	0-20 ballgacha
	JAMI		**100 Ball**

Stendap (yakkaxon)

T/r	Mezon	Mezon mazmuni	Eng yuqori ball
1	Mualliflik materiali va originalik	Shaxsiy kuzatuv, o‘ziga xos nuqtayi nazar, ko‘chirmachilikdan xoli matn.	0-20 ballgacha
2	Hazil tuzilishi va mazmun	Setup-punchline uyg‘unligi, mavzu rivoji, hazil zichligi va mantiq.	0-20 ballgacha

T/r	Mezon	Mezon mazmuni	Eng yuqori ball
3	Yetkazib berish mahorati	Diksiya, ovoz, ritm, pauza, tabiiylik va sahnadagi ishonch.	0-20 ballgacha
4	Tomoshabin bilan muloqot va improvizatsiya	Auditoriya reaksiyasiga moslashish va jonli muloqot.	0-20 ballgacha
5	Vaqti reglamenti	Belglangan vaqt reglamentiga amal qilganlik.	0-20 ballgacha
	JAMI		**100 Ball**

Xalqaro yo‘nalish

T/r	Mezon	Mezon mazmuni	Eng yuqori ball
1	Mualliflik materiali va originalik	Shaxsiy kuzatuvlar, o‘ziga xos nuqtayi nazar, ko‘chirmachilikdan xoli matn	0-20 ballgacha
2	Hazil tuzilishi va mazmun	Chet tilida hazil qurish mahorati, mavzuning rivojlanib borishi va yumorning zichligi, xalqaro auditoriyaga tushunarli tilda bayon etishi.	0-20 ballgacha
3	Yetkazib berish mahorati	Diksiya, ovoz, ritm, pauza, tabiiylik va sahnadagi ishonch.	0-20 ballgacha
4	Tomoshabin bilan muloqot va improvizatsiya	Auditoriya reaksiyasiga moslashish va jonli muloqot.	0-20 ballgacha
5	Vaqti reglamenti	Belglangan vaqt reglamentiga amal qilganlik.	0-20 ballgacha
	JAMI		**100 Ball**

II. HAKAMNING INDIVIDUAL BAHOLASH VARAQASI

Umumiy ma’lumotlar jadvali	
Bosqich	
Tanlov toifasi	
Ishtirokchi / jamoa nomi	
Chiqish nomi	

Umumiy ma’lumotlar jadvali			
Baholash mezonlari va ballar jadvali			
T/r	**Mezon**	**Baholash**	**Qo‘yilgan ball**
1		0-20 ballgacha	
2		0-20 ballgacha	
3		0-20 ballgacha	
4		0-20 ballgacha	
5		0-20 ballgacha	
JAMI		**100**	
Hakamning xulosasi va tasdiqlash jadvali			
Hakamning F.I.SH			
Hakamning imzosi			
Sana va vaqt			
Izoh:			

III. HAKAMLAR HAY’ATI BAYONNOMASI

№ ____

O‘tkazilgan vaqti: “____” _____2026-yil **O‘tkazilgan joyi:**_____

Hudud nomi: _____

Tanlov bosqichi: _____

HAKAMLAR HAY’ATI TARKIBI

Hakamlar hay’ati raisi:

_____

Hakamlar hay’ati a’zolari:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

KUN TARTIBI:

“Kelajak so‘z ustasi” ko‘rik-tanlovining “____”-bosqichi ishtirokchilarining chiqishlarini baholash, yakuniy natijalarni umumlashtirish hamda keyingi bosqichga yo‘llanma olgan g‘oliblarni aniqlash.

TANLOV NATIJALARI

Ishtirokchilarning chiqishlari Hakamlar hay’atining individual baholash varaqalaridagi ballari asosida quyidagicha taqsimlandi:

T/r	Ishtirokchi/Jamoa nomi	To‘plagan bali	Egallagan o‘rni
Askiya san’ati toifasi			
1.			
2.			
3.			
Qiziqchilik san’ati toifasi (yakkaxon)			
1.			
2.			
3.			

Qiziqchilik san’ati toifasi (jamoaviy)			
1.			
2.			
3.			
Stendap san’ati toifasi			
1.			
2.			
3.			
Xalqaro yo‘nalish toifasi			
1.			
2.			
3.			

HAKAMLAR HAY’ATINING QARORI

“Kelajak so‘z ustasi” ko‘rik-tanlovining “____”-bosqichi g‘olib va sovrindorlari tasdiqlansin. Har bir tanlov toifasi bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan quyidagi ishtirokchi(lar) keyingi _____ bosqichga yo‘llanma olgan deb hisoblansin:

Askiya (jamoaviy): _____

Qiziqchilik (yakkaxon): _____

Qiziqchilik (jamoaviy): _____

Stendap (yakkaxon): _____

Xalqaro yo‘nalish: _____

Ushbu bayonnoma va hakamlarning individual baholash varaqalari belgilangan tartibda Ishchi guruhga taqdim etilsin.

Hakamlar hay’ati raisi: _____ _____
(imzo)

A’zolar:

1. _____ _____
(imzo)

2. _____ _____
(imzo)

3. _____ _____
(imzo)

4. _____ _____
(imzo)

Bayonnoma tuzuvchi (Kotib):

_____ _____
(imzo)

IV . VAQT REGLAMENTI

T/r	Tanlov toifasi	1-bosqich (“Ochiq mikrofon” kechasi)	2-bosqich (Tuman/ shahar)	3-bosqich (Hududiy)	4-bosqich (Respublika)
1.	Askiya *(jamoaviy)*	3 daqiqa	3 daqiqa	5 daqiqa	6 daqiqa
2.	Qiziqchilik *(yakkaxon)*	3 daqiqa	3 daqiqa	5 daqiqa	6 daqiqa
3.	Qiziqchilik *(jamoaviy)*	4 daqiqa	4 daqiqa	7 daqiqa	7 daqiqa
4.	Stendap *(yakkaxon)*	3 daqiqa	3 daqiqa	5 daqiqa	6 daqiqa
5.	Xalqaro yo‘nalish	-	-	5 daqiqa	5 daqiqa

“Ochiq mikrofon” ijodiy kechasini
tashkil etish va o‘tkazish tartibi
to‘g‘risida Nizomga
2-ILOVA

Ishtirokchi/jamoa nomi:

_____

Bosqich, hudud va tanlov toifasi:

_____

Rasmiy natija e’lon qilingan sana:

_____

E’tiroz bildirilayotgan qaror yoki holat:

_____

_____

_____

Nizomning buzilgan deb hisoblanayotgan bandi:

_____

Talab va asoslantirish:

_____

_____

_____

_____

Ilova qilinayotgan dalillar:

_____

Ariza beruvchining imzosi va sana:

_____

Eslatma: apellyatsiya rasmiy natija e’lon qilingan kundan boshlab 2 ish kuni ichida beriladi.